



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 7-fevral, № 28 (8651)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



ELEKTROMOBIL TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-fevral kuni elektromobil ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda avtomobilsozlik bo'yicha katta tajriba va infratuzilma bor. Bugungi kunda 8 ta zavodda o'nlab turdagi avtomobillar, yo'lovchi va yuk mashinalari, qishloq xo'jaligi va maxsus texnikalar ishlab chiqarilmoqda. Yana 2 mingdan ziyod korxonalarda kooperatsiya asosida butlovchi va ehtiyot qismlar tayyorlanmoqda.

O'tgan yili dekabrda bo'lgan yig'ilishda davlatimiz rahbari elektromobillar hayotga tez kirib kelayotganini ta'kidlab, bu sohani o'zlashtirish bo'yicha topshiriqlar bergan edi. Joriy yil yanvarda Xitoyga davlat tashrifi chog'ida Prezidentimiz "BYD" kompaniyasining bosh qarorgohida bo'ldi. Ushbu kompaniya bilan hamkorlikda Jizzax viloyatida gibridd va elektr avtomobillari yig'ish bo'yicha loyiha boshlandi. Kompaniya rahbari bilan muzokara chog'ida yaqin istiqbolda ishlab chiqarish quvvatini yiliga 500 ming donagacha yetkazish bo'yicha fikr almashilgan edi.

Bu zamon talab qilayotgan yo'nalish. So'nggi uch yilda O'zbekistonda elektromobillar sotuvi 10 barobar ko'paygan. 2023-yilda import qilingan

avtomobillarning 35 foizini elektromobil va gibriddlar tashkil qilgan. Shu bois mutasaddilarga bu yo'nalishdagi marralarni kengroq olib, loyihalarni jadallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. "BYD" kompaniyasi hamkorlarini jalb qilib, elektromobillar uchun butlovchi qismlarni o'zlashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Mazkur yangi tarmoqda raqobatbardosh bo'lish uchun, eng avvalo, innovatsiya va ilg'or texnologiyalar kerak. Shu bois Turin politexnika universiteti, muhandislik markazlari, ilmiy institut va laboratoriyalarni o'zaro bog'laydigan yaxlit tizim yaratish vazifasi qo'yildi.

Shuningdek, bu soha rivojlanishi bilan muxassis va ishchilarga talab ortadi. Yaqin uch yilda bu talab 10 mingga yetishi mumkin. Shuning uchun malakali kadrlar tayyorlashni hozirdan boshlash kerakligi qayd etildi.

Elektromobillarni quvvatlash stansiyalarini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqilishi belgilandi.

O'ZA.

Senat qo'mitalarida

MUHOKAMA MUKAMMALLIKNI TA'MINLAYDI

Oliy Majlis Senatining qator qo'mitalari tomonidan tashkil etilgan yig'ilishlarda "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi muhokama markazida bo'ldi. Ya'ni unda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha yo'nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, ularning har biri yuksak mas'uliyat hissi bilan ko'rib chiqildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini qabul qilish taklifi bildirildi

Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi majlisida senatorlar, mahalliy Kengashlar deputatlari, Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyalar raislari, ekspertlar guruhi a'zolari, mutasaddi vazirlik va idoralar hamda OAV vakillari qatnashdi.

Ma'lumki, inson qadriini ulug'lash, aholi manfaatlarini ta'minlash va buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish asosiy ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, yig'ilishda davlat dasturi loyihasidagi bir qator maqsadlarga erishishga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va fikr-mulohazalar bildirildi.

3

VATANIMIZ BIR, MAQSADIMIZ YAGONA

Har kuni erta tongda uyg'onib, shunday nurafshon kunlarga yetkazganiga shukr qilamiz. To'kin dasturxon atrofida butun oila jam bo'lib nonushta qilamiz. Farzandlarimizning baxtli hayotidan, jajji kichkintoylarning sho'xliklaridan shodlanamiz. Ko'nglimiz to'q, ishga yoki o'qishga shoshilamiz.

Bu xotirjamlik, turmushimizdagi to'kislik, ertangi kunga ishonch — bularning barchasi yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik mevasi, xalqimiz jipsligi, yorug' niyatlari ro'yobi.

Bedor o'y

Irodamizni toblagan sinovlar

To'g'risini aytganda, bugun dunyoning hamma mintaqalarida ham tinchlik-xotirjamlik O'zbekistondagidek

barqaror emas. Ommaviy axborot vositalari, internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'rib-bilib turibmiz: qaysi bir hududda bombalar portlashidan, tanklarning gumbur-gumburidan insonlar hadik-xavotirda jon saqlamoqda, qaysi bir hududda tabiiy va texnogen ofatlar qalblarga g'ulg'ula solmoqda.



o'zaro muloqot, ilm-fan va turli manbalardan foydalanish imkonini yaratishi bilan birga odamlarga mafkuraviy bosimlar o'tkazish, har xil g'oyalarni targ'ib qilish, yoshlar ongini egallashda qo'l kelyapti.

Ishonchimiz komilki, bunday axborot xurujlari bag'rikeng xalqimizni aslo cho'chit olmaydi. Ruhimizni sindirolmaydi, aksincha, millatlararo totuvlikni, jipsligimizni, o'zaro xayrixohligimizni, ezgulik yo'lidagi g'ayrat-shijoatimizni yanada oshiradi.

Chunki biz bunday sinovlarni ko'p ko'rganmiz, irodamizni toblaganmiz. Ogohlik va hushyorlik, el-yurt taqdiriga daxldorlik

hayotimiz qoidasiga aylangan. Chunonchi, yaqin o'tgan davrda Qoraqalpog'istonda bo'lgan ko'ngilsiz voqealar, tartibsizliklar bu ikki xalqni bir-biridan ajrata olmadi. Masala mohiyatini tushunmay, turli qutqularga uchgan odamlar ko'chaga chiqib ketgan, shaharda vaziyat ancha keskinlashgan paytda Prezidentimiz Nukusga keldi, xalq bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbarining odamlar bilan uchrashuvda aytgan gaplari hech yodimizdan chiqmaydi: "Qoraqalpog'istonning taqdiri — bu O'zbekistonning taqdiri, qoraqalpoq xalqining baxti va farovonligi — bu butun o'zbek xalqining baxti va farovonligidir".

2

Tahlil

SENAT HUZURIDAGI YOSHLAR PARLAMENTI YOSH AVLOD MANFAATLARINI IFODA ETUVCHI MUHIM TUZILMAGA AYLANDI

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish masalasiga davlat darajasida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bunga javoban yoshlarimiz barcha jahhadda o'zlarini to'la namoyon etayotgani e'tiborga molik. Buni birgina Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamentining o'tgan yilgi faoliyati misolida ham ko'rish mumkin.



Darhaqiqat, mazkur tuzilma yoshlarimizga yaratilgan imkoniyatlar, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar bilan tengdoshlarini yaqindan tanishtirish hamda ularning muammo va takliflarini tegishli organlarga yetkazish bilan birga qonun ijodkorligi jarayonida faollik ko'rsatib kelayotgani diqqatga sazovor. Shu ma'noda, uni mamlakatimiz yoshlarining manfaatlarini ifoda etuvchi parlamentdagi muhim tuzilmaga aylandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan, o'tgan yili mamlakatimiz hayotidagi turli muhim voqealar, shu jumladan, qabul qilinayotgan hujjatlar mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoshlarga yetkazish jarayonida alohida faollik ko'rsatganini ta'kidlash zarur.

3

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIY MASALALAR VA TASHABBUSLARDA AHOI FAROVONLIGI USTUVOR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov o'tgan haftada "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi hamda uni tasdiqlash to'g'risida Prezident Farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgani, joriy yilgi dasturiy vazifalarimizning asosini tashkil etuvchi tadbirlarni o'z ichiga olgan mazkur muhim hujjat hozir mamlakatimizda, qolaversa, quyi palatadagi siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo'mitalarda qizg'in muhokama qilinayotganini qayd etib, palata o'z takliflari va tavsiyalarini taqdim qilishini bildirdi.

Shu bilan birga, Spiker kuni kecha Prezidentimiz raisligida ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasini yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida O'zbekistonda ijtimoiy davlat qurish strategik maqsad etib belgilangani, aholi turmushi uchun munosib sharoitlar yaratish, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish bo'yicha choralar ko'rilyotgani qayd etilganiga to'xtalib o'tdi.

Davlatimiz rahbarining maktablardagi tarbiya va ma'naviyat masalalariga alohida to'xtalib, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda "huquqbuzarlikka qarshi immunitet" hosil qilish zarurligiga e'tibor qaratgani ota-onalar va mahalla raislarining bu boradagi mas'uliyatini yanada oshirishi ta'kidlandi. O'z navbatida, parlament, jumladan, siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo'mitalar Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy yo'nalishda belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, o'z oldiga muhim masalalarni qo'yishi, qonunchilik faoliyatidagi ayrim tuzatishlarni kiritishi zarurligi aytib o'tildi.

O'simlik va hayvonot dunyosi muhofazasi kuchaytiriladi

Majlisda "O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvonot turlarini muhofaza qilishni yanada kuchaytirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan o'simlik, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi, ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risidagi bir qator qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Qonun tashabbuskorlarining fikriga ko'ra, bugungi kunda "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simlik va hayvonlar turlarining barqaror yashash sharoitlarini ta'minlash maqsadida ulardan foydalanishga qo'yilgan qonuniy cheklavlar va talablar yanada kuchaytirilishi lozim.

Loyihada kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik turlarini saqlash choralariga aniqlik kiritilib, yovvoyi holda o'suvchi kamyob o'simliklarni tabiiy muhitdan ajratib olish talablari kuchaytirilmoqda. Xususan, ulardan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadida foydalanish, ular tabiiy holda o'sib chiqqan joylarda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil qilishga oid me'yoriy kiritilmoqda.

3

XS

DIQQAT!

“Xalq so‘zi” gazetasi tanlovida ishtirok eting!

Tahririyatimiz tomonidan eng yaxshi maqola va suratlar tanlovi o'tkazish an'angaya aylangan. Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida ham biz o'quvchilarimizdan zamondoshlarimiz hayoti, mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar aks etgan materiallar, shuningdek, joylarda taraqqiyotga g'ov bo'layotgan kamchilik va muammolar, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ilgari surilgan tanqidiy va tahliliy maqolalar kutib qolamiz.

Ijodiy tanlov materiallari quyidagi tartibda qabul qilinadi:

— mualliflik huquqi uchinchi shaxsga berilmagan hamda boshqa ommaviy

Халқ сўзи
Народное слово

axborot vositalarida e'lon qilinmagan materiallar (elektron yoki A4 format qog'ozga chop etilgan nusxada); — "Jpeg" formatda "RGB" ranglar tekisligida suratga olingan, yuqori sifatga ega va uzun tomoni kamida 2 000 piksel o'lchovdagi fotosuratlar elektron nusxalarda qabul qilinadi. Tasvirlarda ramkalar, yozuvlarga yo'l qo'yilmaydi. Fotosuratlar qisqa hamda ishonchli tagxat bilan to'dirilishi kerak.

Tanlovga ijodiy ishlar yil davomida qabul qilinadi. Tanlovda qatnashish uchun materiallar va fotosuratlariga

muallif hamda uning professional faoliyati to'g'risidagi ma'lumot va telefon raqamlari ilova qilinishi lozim.

Maqolalar, lavhalar, ocherklar, fotosuratlarini baholashda ularning badiiy yechimiga, o'ziga xosligiga, ixchamligiga, ko'tarilgan mavzu qanchalik to'laqonli ochib berilganligiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Eng yaxshi maqolalar hamda suratlar "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarida yoki saytida chop etiladi. Hakamlar hay'ati tomonidan g'olib, deb topilgan mualliflar "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarida har chorak yakunida e'lon qilib boriladi. Ular maxsus diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi.



Ijodiy ishlarni "Tanlov uchun material" belgisi ostida tahririyatning Toshkent shahri, Chilonzor tumani, I. Karimov ko'chasi, 55-uy manzili yoki info@xs.uz elektron pochta yuboring.

Telefon: +998 99 3737302.

VATANIMIZ BIR, MAQSADIMIZ YAGONA



Samimiyat bilan aytilgan bu so'zlarni xalq juda yaxshi kutib oldi. Adashganlar xatosini angladi, ezgu yo'lda yana birlashdi.

Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar

Xalqimizda "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", degan maqol bejiz aytilmaydi. Qayerdagi ahilik, hamjihatlik bo'lsa, muammolar bartaraf bo'ladi, orzu-maqсадlarga erishiladi.

O'zbek va qoraqalpog'larlarning ham maqsadi yagona, umido niyatlari, ildizlari tutash, kelajagi bir. Hamjihatligimizni ko'rolmaydiganlarga, Vatanga, millatga otilgan malomat, tuhmat toshlariga hamma vaqt o'z vaqtida, munosib javob berishimiz kerak. Ana shunda bizni hech



kim to'g'ri yo'ldan chalg'itilmaydi, g'ayir kimsalar niyatlariga yetolmaydi.

Bugun dunyoga ochiq ko'z bilan qarash, keng tafakkur bilan nazar tashlash lozim. Turli mintaqalarda har xil bahonalar bilan urush olovini yoqayotgan qudratli mamlakatlar rivojlanish yo'lidən borayotgan tinch davlatlarga nisbatan turli usullar bilan bosim o'tkazishga, jamiyatlardagi barqarorlikka ramxa solishga intilayotgani bizni ham xulosa chiqarishga undaydi. Buzg'unchi g'oyalari bilan millatlar, elatlar o'rtasiga nizo solishga urinayotgan, yosh avlodning ongini zaharlayotgan tuban kimsalarga nisbatan

tegishli diplomatik choralar ko'rishni taqozo etadi.

O'zbek va qoraqalpog'ni azaldan urf-odatlar, an'analar, qon-qardoshlik rishtalari bog'lab turadi. Bizning tilimiz bir, dinimiz bir, tariximiz mushtarak. Necha asrlardan buyon qiz berib, qiz olamiz, quda-anda bo'lib ketgan qardosh xalqlarmiz. Azaldan dushmanlarni birgalashib yengganmiz, sinovli kunlarni boshdan kechirib, bugun dorilamon kunlarda yashayapmiz.

Biroq tan olishimiz kerak, bugungi yutuqlar bilan chegaralانب qolsak, xotirjamlikka berilsak, sergaklikni unutsak, ko'p narsani boy beramiz. Hal qilishimiz zarur bo'lgan muammolar, fe'limizda to'g'rilashimiz shart bo'lgan illatlar hali ko'p. Oramizda kibrga berilganlar, ayirmachilik, mahalliychilik kayfiyatida yuradiganlar borligini inkor etib bo'lmaydi.

Ana shu illatlarni zehniyatimizdan, millat dunyoqarashidan chiqarib tashlamas ekanmiz, yagona xalq sifatida dunyo hamjamiyati e'tiboriga, e'tirofiga tushishimiz qiyin bo'ladi. Mahalliychilik, byurokratiya, korrupsiya, mansabga ruju qo'yish, hokimiyatni, mamlakatni bo'lib olishga intilish Vatanni zaiflashtiradi, dushmanlarga qulay sharoit yaratadi. Bu qoraqalpog' bu xorazmlik, bu vodiyan, u vohadan kabi ayirmachilik o'tmishi ulug' bo'lgan xalq avlodlariga yarashmaydi. Bizning Vatanimiz bir va bitta maqsad yo'lidə birlashib, mustaqilligimizni

Hayotbaxsh tashabbuslar

Prezidentimizning Qoraqalpog'istonga, qoraqalpog' eliga mehr-muhabbati, e'tibori naqadar yuksak ekaniga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Davlatimiz rahbarining g'amxo'rligi bois bugun xalqimiz Orol dengizi qurishidek ulkan ekologik fojia bilan mardonavor kurashmoqda. Butun O'zbekiston bu yo'lda birdam, hamjihat bo'lmoqda, turli viloyatlardan ko'mak ko'rsatilmoqda. Qurigan dengiz o'rinda yashil qoplamalar, saksovluzorlar barpo etilmoqda.

Keyingi 6-7 yilda bu hududda odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilash, tayinli ish, doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi, oilasi bilan tinch-xotirjam yashashi uchun ulkan



ishlar qilindi. Xususan, mintaqani moliyalashtirish, iqtisodiy salohiyatini oshirish, matonatli qoraqalpog' elining salomatligini tiklash, hududda yashil bog'larni yaratish uchun katta mablag' ajratildi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan barpo etilayotgan yashil hududlar bugungi va kelgusi avlodga ekologik toza havodan bahramand bo'lish uchun qulay sharoit yaratadi. Bugun Orol umidlarning ro'yobga chiqishi va yangilanish ramziga aylanmoqda.

Orolbo'yi hududlarida barpo etilgan saksovluzorda shamol ta'sirida qum ko'chishi holatlari keskin kamaydi. Natijada mintaqada iqlim mo'tadillashmoqda, qum va tuzning havoga ko'tarilib mintaqə bo'ylab tarqalishi kamaydi. Davlatimiz rahbari o'tgan yili hududlar rivoji va aholi hayoti bilan tanishish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi doirasida mintaqada sanoatni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, aholi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan 3 ta yangi tashabbusni ilgari surdi. Buning natijasida ishsiz yurgan ming-minglab yoshlar, xotin-qizlar doimiy ish joyiga ega bo'lmoqda, minglab oilalarga farovonlik, to'kinlik kirib boryapti.

Qoraqalpog'istondagi 454 ta mahallaning har biriga to'g'ridan-to'g'ri 500 million so'mdan qo'shimcha mablag' berildi, mahallalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil qilinib 250 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston mo'jizalar o'lkasiga aylandi. Orol bo'ylariga yangi hayot, yangi kayfiyat kirib keldi. Odamlar yuz-ko'zida mamnunlik, umid va ishonch tuyg'ulari yanada yorqin namoyon bo'lmoqda. Qoraqalpog'istonni rivojlantirish, inson qadrini ulug'lash, xalqni rozi qilish, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, elimiz farovonligini yuksaltirish, turmush sharoitini yanada yaxshilashning yangi bosqichi boshlandi.

Mo'ynoq tajribasining ahamiyati

Ilgari Mo'ynoqqa kelgan odam bugun uning qiyofasi butunlay o'zgariganiga guvoh bo'ladi. Keng va baland imoratlar, mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish shoxobchalari, amfiteatr, kurant, muzeylar, xullas, bir-biridan ko'rkam inshootlar savlat to'kib turibdi. Yangi aeroport ishga tushirildi. Sayyohlar eng ko'p keladigan ochiq osmon ostidagi "Kemalar qabristoni"da dengiz tomon suzmoqchi bo'lib turgan kemalar uzoq tarixdan so'zlayotgandek bo'ladi, go'yo.

Mo'ynoq tumani 1931-yili tashkil etilgan. Bir vaqtlar katta qismini dengiz egallagan hudud cho'l va yarimdashtliklardan iborat. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda tumanda 32 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Prezidentimiz bejiz "Madaniyat Mo'ynoqdan boshlanadi" deb aytmagani edi. Mo'ynoqda qad ko'targan zamonaviy inshootlar, bog'lar, adiblar xiyoboni, hunarmandlar alleysai, muzeylar, musiqa va san'at maktablari ko'zni quvontiradi, eng chekka qishloqlarda ham yangilanishlar, bunyodkorlik ishlari avj olgan.

Mo'ynoq tumanida moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari



milliy ro'yxatiga jami 12 ta madaniy meros va ziyorat obyekti kiritilgan. Bular — Ekologiya muzeyi, Orol tarixi muzeyi, Hunarmandlar alleysai, "Baliqchi uyi" uy-muzeyi, Hakim ota, Toqmaq ota va Ajiniyoz bobo maqbaralari. Shuningdek, Orol dengizi, Sudochoye ko'li, Ustyurt tekisligi, Ochiq osmon ostidagi kemalar muzeyi, Urga qishlog'i va "Orolgadi bog'im" loyihasi asosidagi innovatsion bog' shular jumlasidandir.

Prezidentimizning 2020-yil 11-noyabrda "2020 — 2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan Mo'ynoq tumanida keng ko'lami investsiyalar o'zlashtirilishi hisobidan qator loyihalar amalga oshirilib, yangi ish o'rinlari yaratildi.

Mo'ynoqda yuz berayotgan yangilanishlar bugun nafaqat ushbu hududda yashayotgan yurtdoshlarimiz, balki butun xalqimizning kayfiyatini yanada ko'tarib, ertangi kunga ishonchini mustahkamlamoqda. Zotan, katta ekologik ofat bilan yuzlashgan, bir vaqtlar e'tibordan chetda qolib abgor, tashlandiq holga kelgan hududni xalqimiz birlashib, yakkil, hamfikr bo'lib, shunday ko'rkam, obod qila oldimi, odamlarining ko'nglini shod, hayotini farovonlashtira bildimi, demak, yurtimizning eng chekka joyidagi muammoni ham hal qilishga imkonimiz, salohiyatimiz yetadi.

Qudratimiz — jipslikda, hamjihatlikda

Prezidentimiz har gal qoraqalpog'istonlik faxriylar, aholi vakillari, deputatlar bilan uchrashganida, yurtimizdagi hamjihatlik, tinchlik-osoyishtalik, mehr-oqibat, qadr-qimmat haqida gapirib charchamaydi. Tilimiz, dinimiz, Vatanimiz bir bo'lgan, etu tirnoq bo'lib yashayotgan ko'p millatli diyorda adovat va tushunmovchiliklar bo'lmasligi, kelajak avlodga eng go'zal fazilatlar, mustahkam do'stlik rishtalarini

meros qilib qoldirish kerakligini doim takrorlaydi.

O'zbekistondagi o'zgarishlar, islohotlar xalqlarimiz baxti-saodati, tinchligi, farovon hayotini o'ylab qilinmoqda. Keyingi yillarda Mo'ynoqdan tortib Bo'zatovgacha, Shumanaydan tortib Qorao'zakkacha, Ellikqal'adan tortib Qonliko'lgacha hayotbaxsh bunyodkorliklar, ortga qaytmas islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning yangi O'zbekistonni, yangi Qoraqalpog'istonni birgalikda quramiz, degan qanotbaxsh so'zlari o'zbeugu qoraqalpog'ning ko'nglini ko'taradi, g'ururga to'ldiradi. Qishloqlarimizda uy-joylar yangidan barpo qilinaypti, obodonchilikka e'tibor berilmoqda. Hozir tumanlarda zamonaviy o'lchamlar asosida qurilayotgan yangi uylar, yangi turarjoylar ko'lami kengayganidan kengayib bormoqda. Unutila boshlagan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz qaytadan tiklanmoqda. Har bir mahallada tadbirkorlikka asoslangan, munosib haq to'lanadigan ish o'rinlari yaratilmoqda.

Bunga javoban hammamiz bir jon, bir tan bo'lib, yurtimiz tinchligini, omoligini, barqarorligini saqlashimiz ham farz, ham qarzdır. Ko'p millatli xalqimiz farovonligi uchun bundan buyon ham fidoyilik bilan mehnat qilib, yanada yuksak marralarni egallashimiz ana shu omillarga bog'liq. O'zbek bilan qoraqalpog' xalqlari azal-azaldan do'st-inoq bo'lib, bir zaminda yashab kelgan va shunday bo'lib qoladi. Bizning qudratimiz jipsligimizda, hamjihatligimizda.

Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, barchamiz uchun Vatan bitta. Bizni yagona, ulug' bir maqsad birlashtiradi. U ham bo'lsa, yurtimiz tinchligi, Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligidir.

Ulug'bek JALMENOY,
O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasining
Qoraqalpog'iston Kengashi raisi,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

SIFATLI TA'LIM VA TARBIYA MAMLAKATNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, odamlarni hayotdan rozi qilish, ularning uzoq kelajakda yoki ertaga emas, balki aynan bugun yaxshi yashashini ta'minlashga qaratilgan islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, ushbu yo'nalishlarda muhim loyihalar hayotga samarali tatbiq etilayotgani e'tiborga molik. Buni birgina 2023-yilda ijtimoiy sohaga 134 trillion so'm mablag' ajratilgani misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Munosabat

Sifatli bilim, ta'lim va tarbiya — yangi O'zbekistonning mustahkam poydevori. Bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqat. Zero, sifati ta'limsiz, malakali kadrlarsiz jamiyatda, mamlakatda yuksalish bo'lmaydi.

Yurtimizda ushbu sohani, inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, malakali kadrlar tayyorlash uchun katta kuch va mablag' yo'naltirilayotgani bois ham shunda. Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida oxirgi yetti yilda maktabgacha ta'limda qamrov 27 foizdan 74 foizga yetdi. Yangi maktablar qurilib, qo'shimcha 700 mingta o'quvchi o'rni tashkil etildi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida ham ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangani diqqatga sazovor. Xususan, "Namunaviy maktab" loyihalari asosida 480 ta maktabni rekonstruksiya qilish va yangidan barpo

etish orqali 150 ming o'quvchi o'rmini yaratish maqsad qilingan.

Olis va chekka hududlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish, yangi maktablarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish hamda ularida zarur shart-sharoitlarni yaratish, nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari qamrovini kengaytirish masalasi o'rin olgan.

Prezidentimiz raisligida shu yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratilib, joriy yildagi vazifalar belgilandi.

Ta'limsiz kelajakni qurib bo'lmisligi hammamizga yaxshi ayon. Ta'lim sohasida hali qilinadigan ishlar ham juda ko'p. Shu bois o'tgan haftada Loyiha ofisi tashkil qilinib, unga katta ilmiy-amaliy tajribasi bor mutaxassislar jamlandi. Endi mazkur ofis Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan birgalikda maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya

va xorijiy tillar bo'yicha o'quv reja va dasturlarni xalqaro standartlar asosida yangilaydi.

So'nggi yillarda ushbu masalaga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki har bir yosh maktab davridayoq, hech bo'lmasa, bitta hunarni egallab, katta hayotga qadam qo'ysa, ertaga ishsiz qolmaydi, kasb-hunarli bo'ladi. Bu borada 50 ta kasb-hunar ro'yxati tuzilib, ular bo'yicha o'quv va amaliyot dasturlari ishlab chiqilishi ayni muddaddir. Ayniqsa, maktablarda ustaxonalar, tadbirkorlar va mutaxassislarni jalb qilgan holda to'garaklar tashkil etilishi ertamiz egalarining bolalikdan biror-bir hunarning boshini tutishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat biz uchun ustuvor masalalardan sanaladi. Zero, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Shu sababli yig'ilishda darslardagi davomatga, tarbiyasi og'ir o'quvchilarga alohida e'tibor qaratilishi belgilandi. Ota-onalar va mahalla raislarining bu boradagi mas'uliyati oshirilib, "maktab — ota-ona — mahalla" zanjiri asosida elektron muloqot platformasi ishga tushirildi.

Yig'ilishda yangi o'quv yilidan boshlab, texnikumlarda o'qitish "akademik" va "ishchi kasb" komponentlarining uzviyligini ta'minlaydigan yangi tizim asosida yo'lga qo'yilishi qayd etildi. Bunda kollej-texnikumning 1 va 2-kursidagi ta'lim dasturlari, darsliklar, bilimni

baholash mezonlari va muallimlarga talablar oliygohlar bilan bir xil bo'ladi.

Bundan tashqari, texnikumlarda ham "kredit tizimi" joriy qilinib, fanni o'zlashtirish bo'yicha to'plangan "kreditlar" oliygohlarda tan olinadigan tizim bo'ladi. Ya'ni kollej-texnikumda ikki yil davomida yetarli "kredit" to'plagan o'quvchilar "2+2" yoki "2+3" dasturlari asosida oliygohlarning ikkinchi yoki uchinchi kurslarida ta'limni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Videoselektor yig'ilishida kollej-texnikumda o'qib, faoliyatini ishlab chiqarishda davom ettirmoqchi bo'lganlarning sohadagi mavqegini oshirish bo'yicha ham yangi tizim yo'lga qo'yilishi, kollej-texnikumda "ishchi kasb" yo'nalishida o'qiganlar ikki yoki uch yil ishlab, tajriba orttirganidan keyin imtihon topshirib, bakalavrga teng malaka darajasini olishi mumkinligi aytilidiki, bu ming-minglab ta'lim olish istagida yurgan yoshlarimizning ayni dildagi gap bo'ladi. O'z navbatida, bu yigit-qizlarni uchun katta imkoniyat hamdir.

Umuman olganda, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar faqat soha mutasaddilariga tegishli emas. Bu barcha darajadagi rahbarlar, shu jumladan, biz, deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Demak, belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda yanada faol va tashabbuskor bo'lishimiz darkor.

Muxtorjon HOJIMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

Aks sado

SOG'LIQNI SAQLASH FIDOYILIK TALAB QILADI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan ta'lim, tibbiyot, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalaridagi islohotlarning joylardagi ijrosini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida sog'liqni saqlash tizimidagi mavjud kamchiliklar tanqidiy tahlil etilib, galdagi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Yig'ilishda erishilayotgan yutuqlar bilan birga talay dolzarb vazifalar ham o'z yechimini kutayotgani aytiladi.

Ma'lumki, har qanday kasallikni davolashdan ko'ra uning oldini olgan afzal. Shu ma'noda, endilikda onkologik kasalliklarning oldini olish maqsadida erta aniqlangan har bir holat uchun tibbiyot brigadalariga mukofot berish tizimi joriy qilinadigan bo'ldi. Bu bizning filialimiz jamoasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Sir emas, onkologik kasalliklar butun dunyoda davolash uchun katta mablag' va yuksak tibbiy imkoniyatlar talab qiladigan xastaliklar qatoriga kiradi. Shu bois filialimizda onkologiya xizmatini yaxshilash uchun budjetdan yetarli miqdorda mablag'lar ajratilib, davolash hamda diagnostika binolari yangidan barpo etildi. Eng zamonaviy tibbiy jihozlar va dori-darmon vositalari xarid qilindi.

Qolaversa, filialimiz shifokorlaridan 37 nafari xorijiy davlatlardagi yetakchi klinikalarda malaka oshirib qataydi.

Darvoqe, chet mamlakatlardagi 9 ta tibbiyot markazi bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ydik. Amalga oshirilgan ushbu chora-tadbirlar natijasida viloyatdan davolanish uchun poytaxtga boradigan onkologik bemorlar soni ikki

barobar kamaydi. Onkologik kasalliklar bilan xastalanganlar orasida bir yil mobaynidagi o'lim ko'rsatkichi ham sezilarli darajada kamaydi. Yig'ilishda ta'kidlanganidek, kasallikni erta bosqichda aniqlashga e'tibor qaratilgani yutuqlarimizda muhim omil bo'ldi.

Prezidentimiz galdagi dolzarb vazifalarni ham belgilab beridiki, buyam bizga mas'uliyat yuklaydi. Tibbiyot sohasi, jumladan, onkologik kasalliklarning oldini olish borasida bildirilgan tanqidiy fikrlardan xulosa chiqargan holda ishimizni yangi bosqichda davom ettiramiz. Zotan, xalqimiz bizga eng ulkan boyligi — salomatligini ishonib topshirar ekan, biz, tibbiyot xodimlari bu omonatni nafaqat asray olishimiz, balki insonlarning sog'lom va uzoq umr ko'rishi yo'lidə kuch-salohiyatimizni ayamasligimiz, bu ezgu maqsadga butun borlig'imizni baxshida etishimiz kerak. Shundaygina shifokor degan sharafli nomni oqlab, xalqimizning ishonchini qozonamiz.

Tohirjon POLVONOV,
Respublika Ixtisoslashtirilgan
onkologiya va radiologiya
ilmiy-amaliy tibbiyot
markazining Xorazm filiali rahbari.



SENAT HUZURIDAGI YOSHLAR PARLAMENTI YOSH AVLOD MANFAATLARINI IFODA ETUVCHI MUHIM TUZILMAGA AYLANDI



Misol uchun, "O'zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlarida saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamalar jarayonida minglab yosh avlod vakillarining loyiha yuzasidan takliflari o'ldi. E'tiborlisi, ushbu takliflardan qonun ijodkorligi jarayonida unumli foydalanildi.

Yodingizda bo'lsa, davlatimiz rahbari raisligida 2023-yil 11-aprel kuni yoshlar siyosatini sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi.

Yoshlar parlamenti a'zolari ularning ijrosi davomida ham o'zlarini namoyon qila olishdi. Masalan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Olmazor tumani hokimligi bilan hamkorlikda "InnoWeek. Uz — 2023" xalqaro innovatsion g'oyalari haftaligi doirasida OTM talabalari va yuqori sinf o'quvchilari bilan uchrashuv tashkil etilib, unda Yoshlar parlamenti a'zolari tomonidan kasblar, IT, robototexnika, 3D modellash va interyer dizayn hamda eng ko'p qo'llaniladigan 10 ta chet tili bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi. Ayni chog'da Vazirlar Mahkamasi bilan birgalikda jamoatchilik monitoringi olib borildi va 10 ga yaqin vazirliklar bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazildi va doimiy ravishda hamkorlikda amaliy loyihalarni yo'lga qo'yishga kelishib o'ldi.

Shularga mos ravishda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etilgan "Workout" maydonchalarini faoliyati Andjion, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari hamda Toshkent shahri misolida o'rganib chiqildi. Muhimi, shu jarayonda aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf qilish yuzasidan amaliy choralar ko'ridi.

Yoshlar parlamenti o'z faoliyatida ijtimoiy muhofazaga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlashda ham yetakchilik qildi.

Ijtimoiy tarmoqlarda Qarshi shahrida yashovchi fuqaroga uy taqdim etilgani va bir yildan keyin uyga boshlang'ich to'lov amalga oshirilmagani bois olib qo'yilgani bilan bog'liq muammo bo'yicha videomurojaat keng tarqalgandi. Mazkur holatga aniqlik kiritish, muammoni hal qilish bo'yicha 2023-yil mart oyida Yoshlar parlamenti hududiy kengashi a'zolari Qarshi shahar hokimligi bilan birgalikda o'rganish olib bordi va masalaga yechim topildi. Uy Mehribonlik uyi taryialanuvchisi bo'lgan Yekaterina Kanaplyova nomiga rasmiylashtirildi. Uning to'lovi Qashqadaryo Viloyati hokimligi tomonidan to'liq to'lab berildi.

Yoshlar parlamenti tomonidan chet eldagi yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoyalash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro maydonda ham hamkorlik aloqalarini o'rnatishga katta e'tibor qaratilayotir.

Jumladan, 2023-yilda Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida bo'lgan Yoshlar parlamenti a'zolari Belarus Milliy Majlisi huzuridagi Yoshlar parlamenti vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi va hamkorlik memorandumini imzolandi. Unda O'zbekiston Respublikasida va Belarus Respublikasida yoshlar parlamentarizmini yanada rivojlantirish masalasi ko'zda tutilgan. Ya'ni yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlariga daxldor sohalarda tajriba almashish, yoshlar birlashmalari bilan hamkorlikda qo'shma tadbirlar, dastur va loyihalar tashkil etish, ta'lim, innovatsiyalar, axborot texnologiyalari, turizm, volontyorlik, gender tenglik va boshqa sohalarda o'zaro muloqotni yo'lga qo'yish hamda amaliy

ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish belgilandi.

Shuningdek, ushbu tuzilma a'zolari o'tgan yilning 16-noyabr kuni Bishkek shahrida bo'lib o'tgan MDH Yoshlar Parlamentlari o'rtasidagi assambleyasi XXI yalpi majlisida ishtirok etib, yoshlarning xalqaro volontyorlik faoliyati yuzasidan tajriba almashish maqsadida 2024-yil onlayn konferensiyasi o'tkazish tashabbusini ilgari surdi.

O'z navbatida, yosh parlamentariylarimiz Oliy Majlis a'zolarining Turkmaniston Respublikasiga amaliy tashrifi mobaynida hamda Markaziy Osiyo va Xitoy davlatlari "Buyuk Ipak yo'lining yangi davri" nomli yoshlar forumidagi ishtiroki orqali o'z tengdoshlari bilan xalqaro miqyosdagi aloqalarni mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi.

Sir emaski, axborot xuruji kuchayib borayotgan hozirgi globalashuv davrida ushbu masalaga ham alohida yondashish talab qilinadi. Shundan kelib chiqib, mazkur tuzilma vakillari tomonidan yoshlarda mediasavodxonlikni oshirish, faktcheckingni o'rgatishga qaratilgan keng ko'lami ishlar ro'yog'ga chiqarildi. Ayni chog'da "Raqqamli asrdagi bolalar: ijtimoiy va ruhiy farovonlik masalalari" mavzuida tashkil etilgan konferensiyada Yoshlar parlamenti a'zolari tomonidan qator dolzarb taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Parlament funksiyalari orasida nazorat-tahlil faoliyati alohida o'rinda tutadi. Shu bois ham Yoshlar parlamenti a'zolari tomonidan bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratildi. Misol tariqasida "Yovvaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning mamlakatimiz hududlari, jumladan, Samarqand viloyatidagi ijrosi holati o'rganilganini keltirish mumkin.

Yoshlarning muammo va takliflarini o'rganish maqsadida o'tgan yil iyun oyida yurtimizning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida yoshlar qabuli uyushtirildi. Natijada yoshlardagi muammolar, taklif va talablar o'rganilib, tegishli idoralarga mavjud holatga e'tibor qaratish bo'yicha axborot kiritildi.

Yoshlar parlamenti faoliyatidan keng ommani xabardor qilish va uning a'zolarining mediamakondagi chiqishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "web-sayt" yaratilib, Senat saytida unga o'tish uchun maxsus havola ishga tushirildi.

Qolaversa, tabiat muhsafoligi va ekologik barqarorlikni ta'minlash, kelajak avlodga sog'lom muhit yaratib berishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida Yoshlar parlamenti a'zolari tomonidan Buxoro, Surxondaryo, Xorazm, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida "Yoshlar parlamenti bog'i" tashkil qilinib, umumiy hisobda 1000 ga yaqin ko'chatlar o'tqazildi.

Xullas, Senat huzuridagi Yoshlar parlamentining o'tgan yildagi faoliyati anchagina samarali kechdi. Ammo hozirgi tezkor zamonda shuguna yutuq va natijalarning o'zi bilan kifoyalanib qolish mumkin emas. Shu bois mazkur tuzilma a'zolari joriy yilda yanada zalvarli ishlarni amalga oshirishga bel bog'lagan.

Yoshlarning manfaatlarini himoyalashga qaratilgan qonunchilik takliflari ishlab chiqish, nazorat-tahlil yo'nalishida faol ishtirok etish va senatorlarning hududlardagi faoliyati davomida hamkorlik qilish ana shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, vazirliklar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, yoshlarga yo'naltirilgan amaliy loyihalarni kengaytirish orqali ular bilan yanada ko'proq ishlash, xalqaro aloqalar o'rnatish, joylardagi muammolarni hal etishda amaliy yordam ko'rsatish va bunda chekka hududlardagi yoshlarni qamrab olish maqsad qilingan.

Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlarni hamda vazifalarni nazarda tutuvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini qabul qilish, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlarini ochiq tanlov asosida ishga joylashtirishda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Jamoatchilik kengashi bilan kelishish hamda ular faoliyatini doimiy ravishda baholab borish takliflari ilgari surildi.

Shuningdek, muhokama jarayonida tomonlarni kelishtirishga erishish orqali nizolarni sudgacha hal qilish, sudlarda ish hajmini kamaytirish maqsadida mediatsiya instituti rolini tubdan oshirish, bunda tadbirkorlik subyektlari o'rtasida tuzilgan shartnomalarni lozim darajada bajarmaslik natijasida kelib chiqadigan nizolarni dastlab sudga qadar mediatsiya tartibida hal qilish majburiyilgini belgilash masalalariga katta e'tibor qaratildi. Mediativ kelishuvga erishgan taraflar tomonidan kelishuv shartlari ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda buni majburiy tartibda ijroga qaratishni belgilash zarurligi ham aytili.

Yakunda bu takliflar davlat dasturiga kiritish uchun taqdim etilishi ma'lum qilindi.

Kuchli zilzilalar haqida erta ogohlantirish milliy tizimi rivojlantiriladi

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi yig'ilishida jamoatchilik



muhokamasiga qo'yilgan loyiha "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan keng ko'lami islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimiz kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, xavfsizlik va millatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgani ta'kidlab o'tildi.

Shu jumladan, jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olib, Qurolli Kuchlar qudrati va mamlakat mudofaa qobiliyati hamda harbiy salohiyatini yanada oshirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha ishlab chiqilgan kompleks dasturga muvofiq amaliy ishlarni jadallashtirish, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar, xorijiy davlatlar armiyalari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan o'quvlarida axloqiy-ruhiy jihatdan ta'minlash va psixologik tadbirlarni o'tkazish, soha mutaxassislarining yetakchi

"Yashil" energiya manbalari salmog'i oshiriladi

Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi yig'ilishida davlat dasturi loyihasida

barcha soha qatorida ekologiya, atrof-muhitni muhofazalash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish masalalariga keng o'rinda berilgani ta'kidlandi.

"Yashil" energiya manbalari salmog'ini oshirish maqsadida joriy yilda xorijiy investorlar ishtirokida Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Namangan va Navoiy viloyatlarida umumiy quvvati 2 700 MVt bo'lgan 6 ta yirik quyosh elektr stansiyasini ishga tushirish rejalashtirilmoqda. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda energetik barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, loyihada "yashil" iqtisodiyotga o'tishni ta'minlash uchun qulay sharoitlarni yanada kengaytirish maqsadida "yashil" sertifikatlar aylanmasi bozor tamoyillari asosida yo'lga qo'yilishi nazarda tutilmoqda. Ayni chog'da undan suv resurslarini tejash maqsadida yirik kanallarni betonlashtirish, suvni boshqarish tizimini tubdan isloh qilish, suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, sohaga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy qilish masalalari ham o'rinda egallagan.

Yig'ilishda tabiatga ko'rsatilayotgan salbiy oqibatlarni kamaytirish, havo ifloslanishining oldini olish va iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 1,5 foizga qisqartirish, chang bo'ronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish, qurilish maydoniga va unga kirib-chiqish yo'llariga suv

sepadigan osma yomg'irlatgich o'rnatishni majburiy etib belgilash masalalari nazarda tutilayotgani ham aytili o'tildi.

Qolaversa, joriy yilda yashil bog'lar sonini 444 taga yetkazish, yashillik darajasini 12,4 foizga olib chiqish, 112 ta yirik sanoat korxonasining hududida va unga tutash joylarda 2,1 mln. tup ko'chatdan iborat "yashil belbog'"lar barpo qilish, respublikada o'rmon bilan qoplangan maydonlarni 3,65 mln. gektarga yetkazish chorasini ko'rish vazifalari ham belgilangan bo'lib, bu ekologik barqarorlikni ta'minlash muhim o'rinda tutadi.

Orolbo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan vazifalar ham ko'zda tutilganki, bular pirovardida dengizning qurigan tubida qo'shimcha 100 ming gektar yashil maydonlarni barpo etish, iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish hamda biologik xilmaxillikni ta'minlashda qo'l keladi.

Tadbirda senatorlar tomonidan davlat dasturi loyihasida belgilab berilgan vazifalar mamlakatimiz obodligi va xalqimiz farovonligini ta'minlashda, ayniqsa, yurtimizda ekologik barqarorlikka erishish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi hayoti va salomatligi uchun qulay ekologik muhit yaratish, suv resurslarini asrashda dasturlamal bo'lishi ur'gulandi.

Yig'ilishlarda ishtirokchilar tomonidan loyiha yuzasidan bir qator taklif va tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

HAYOTIY MASALALAR VA TASHABBUSLARDA AHOI FAROVONLIGI USTUVOR

Shuningdek, pitomnik va plantatsiyalarda yetishtirilgan "Qizil kitob" ro'yxatidagi o'simlik turlari tabiiy muhitga e'kilganidan kamida uch yil o'tgandan so'ng ularning urug', ko'chat hamda nihollarni yig'ish yoki hosilini olish bo'yicha talablar belgilanmoqda.

Qizg'in muhokama chog'ida deputatlar qonun loyihasidagi ayrim normal yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirib, loyihaning konsepsiyasi va taklif etilgan tahriri o'rtasida tafovut mavjudligini qayd etdilar.

Chunonchi, deputat Zafar Xudoyberdiyevning ta'kidlashicha, qonun ishlab chiqish asosi sifatida ko'rsatilayotgan Prezident qarorida kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, "Qizil kitob"ga kiritilgan yovvoyi hayvon va o'simliklar turlaridan foydalanishni taqitlovchi hamda cheklovchi talablarni belgilash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan bo'lishiga qaramay, qonun tashabbuskorlari taqdim qilgan qonun loyihasida cheklovchi yoki taqitlovchi normal aks ettirilmagan. Masalan, tushuntirish xatida o'v qilishga oid talablar kuchaytirilayotgani aytilsa-da, loyihada ushbu modda umuman o'zgartirilmagan.

Shuningdek, deputatlar tomonidan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simliklar o'sib turgan joyda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil qilishga oid normal ushbu sohada mavjud amaldagi qonunchilikka muvofiq kelmasligi yuzasidan e'tirozlar bildirildi. Shuningdek, qonun loyihasidagi ayrim normal korrupsiogen omillarni yuzaga keltirishi mumkinligi haqidagi fikrlar ham ilgari surildi.

Deputat Azamjon To'laboyev qonun loyihasida davlat o'mon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesish uchun ruxsatnomalar faqatgina Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda ularning viloyat boshqarmalari tomonidan berilishini belgilash taklif etilayotganiga to'xtalib o'tdi. Uning fikricha, amaldagi tartibga ko'ra, daraxtlarni kesishga oid yagona to'xtatma mahalliy hokimliklar hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlarining qo'shma qarori asosida kelinadi. Endilikda ushbu amaliyot bekor qilinib, chekka tumandagi bir daraxtni kesish uchun ham viloyat boshqarmalariga murojaat qilinaladigan bo'lsa, korrupsiya holatlari yuzaga kelishiga sharoit yaratib qo'yilishi mumkin.

O'z navbatida, qonun tashabbuskorlari ushbu e'tirozli masalaga munosabat bildirib, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi qaroriga asosan, davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesishga ruxsatnoma olish tartibi o'zgaririlgani ta'kidlab o'tdi. Jumladan, o'rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni kesmoqchi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga zarur hujjatlarni kiritgan holda masofadan turib, besh ish kunida tegishli boshqarma qaroriga ega bo'lishi mumkinligi qayd etildi.

Uzoq tortishuv va qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

Yerlarni ikkilamchi ijaraga berish imkoniyatlari kengaymoqda

Majlisda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ikkilamchi ijaraga berish va ulardan samarali foydalanish tartibini takomillashtirishga

qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning dala chetlarida 34,5 ming gektar, kollektor-drenajlar atrofida 24,5 ming gektar yer maydonlarida qo'shimcha 340 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish imkoniyati mavjud. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan birga, mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Biroq ushbu maydonlardan samarali foydalanish, shuningdek, ikkilamchi ijaraga berish orqali aholi bandligini ta'minlashning huquqiy asosi yaratilmaganligi sababli mazkur yerlarda mahsulotlar yetishtirish imkoniyatlaridan foydalanilmayapti.

Qonun loyihasi bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari dala chetlaridagi kollektor-drenaj va sug'orish tarmoqlarining atroflaridagi yer maydonlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun o'n yilgacha bo'lgan muddatga ijaraga berish ko'zda tutilmoqda.

Yerdan foydalanuvchilarning dala chetlari va kollektor-drenaj hamda sug'orish tarmoqlarining atroflaridagi yer maydonlari, shuningdek, bog' va tokzor qator oralardan samarali va oqilona foydalanishini ta'minlashga doir majburiyatlari belgilanmoqda.

Bundan tashqari, loyiha bilan Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining vakolatlari ham nazarda tutilmoqda. Ya'ni suv obyektlarida suvning oqilona boshqarilishini ta'minlash, suvdan foydalanish, suv xo'jaligi sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish choralari ko'rish kabi huquqlar berilyapti.

Majlisda deputat G'ayrat Safarov kollektor-drenaj hamda sug'orish tarmoqlari har ikki yilda texnik tozalab turilishi lozimligini ta'kidladi. Uning fikricha, sug'orish tarmoqlariga texnik xizmat vaqtida ko'rsatilmasa, undan chiqayotgan suv yerlarga yomon ta'sir ko'rsatadi. Kollektor-drenajlarning atrofidagi yerlarni ijaraga olgan fuqarolar esa kollektorning qirg'og'igacha ekin ekishni xohlaydi, bu esa texnik xizmat ko'rsatilishiga to'sqinlik qiladi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi mas'ul'i bu haqda to'xtalib o'tdi. Qayd etilishicha, hujjatlarda belgilangan tartibga ko'ra, chuqurligi 2 metr gacha bo'lgan suv havzalarining muhofaza chegarasi 75 santimetrdan 5 metr gacha bo'lishi kerak. Zarurat tug'ilganda uning atrofidan 75 santimetrdan oshmagun miqdorda foydalanish mumkin. Har yili Suv xo'jaligi vazirligi ta'mirlanadigan suv obyektlari ro'yxatini tasdiqlaydi. Bu hududlar ijaraga berilishidan oldin Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan qanday ekinlar ekish mumkinligi tavsiya qilinadi.

Majlisda deputatlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan unumli foydalanish kerakligini ta'kidlab, qonun loyihasida yerdan oqilona foydalanuvchilarning ham huquq va manfaatlarini e'tiborga olish kerakligiga urg'u berildi.

Qonun loyihasidagi normal deputatlar bergan takliflar asosida takomillashtiriladigan bo'ldi va mazkur hujjat birinchi o'qishda qabul qilindi.

O'rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish holati qanday?

Deputatlar O'rmon xo'jaligi agentligi direktori N. Bakirovning "O'rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish holati to'g'risida"gi axborotini eshitdi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda o'rmonlarni muhofaza qilish, o'rmon fondi yerlaridan oqilona foydalanish, ularda daraxtlar va butalarni ekish hamda yetishtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik ekanligi, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va ular davlat muhofazasidali belgilandi.

Shuningdek, "O'rmon to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. O'rmondan, xususan, o'rmon fondi yerlaridan foydalanishning asosiy qoidalari, sohada davlat organlarining vakolatlari yanada aniq ochib berildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi hamda o'rmonlarni muhofaza qilish, saqlab qolish va o'rmon xo'jaligini rivojlantirishning strategik maqsadlari, bu boradagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qayd etildi.

O'rmon xo'jaligi sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar natijasida so'nggi olti yil davomida o'rmon fondi yerlari 1 mln. gektarga kengayib, bugungi kunda 11,9 mln. gektarni, ya'ni respublika umumiy yer maydonining 26,4 foizini tashkil etadi.

Majlisda ta'kidlanganidek, o'rmon fondi yer maydonlaridan foydalanishda ijara munosabatlarni takomillashtirish, ijaraga berishning zamonaviy va shaffof mexanizmlarni joriy etish maqsadida Hukumatning tegishli qarori qabul qilindi.

O'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan 2023-yilda 235 ming gektar maydonda o'rmon barpo qilish va qayta tiklash tadbirlari bajarilgan, o'rmon fondi yerlarining foydalanilmayotgan 7 012 gektar maydonlari o'zlashtirilgan.

Orolbo'yi hududlarining ekologik barqarorligini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanida 127,8 ming gektar, Buxoro viloyatida 40,6 ming gektar, Navoiy viloyatida 43,7 ming gektar va Xorazm viloyatida 10,6 ming gektar maydonda saksovul va boshqa cho'l o'simliklariga "yashil" qoplamalar barpo etilgan.

O'rmon fondi yer maydonlarida o'rmon xo'jaliklari tomonidan 1,1 tonna cho'l va boshqa turdagi daraxtlar hamda butalarning urug'lari jamg'arilgan. Niholxona va ko'chatxonalarning umumiy maydoni 1,3 ming gektarga yetkazilib, 166 mln. dona turli mevali hamda manzarali daraxtlar va butalarning ko'chatlari, nihollari yetishtirilgan.

N. Bakirovning ta'kidlashicha, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida respublika bo'yicha 3 mln. tupga yaqin daraxtlar va butalarning ko'chatlari hamda nihollari bepul yetkazib berilgan, 457 gektar maydonda yashil bog'lar barpo etilgan.



NAVOIY
BIOBIBLIOGRAFIYASI
NASHRGA
TAYYORLANMOQDA

"Xalq so'zi" gazetasining shu yil 23-yanvar sonida e'lon qilingan "Mamlakat ustuni, davlat tayanchi" sarlavhali maqolada akademik Akmal Saidov Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik Shuhrat Sirojiddinovning "Amir Alisher" nomli kitobi haqida fikr yuritish asnosida yurtimizda navoiyshunoslikni yanada rivojlantirish masalalariga ham urg'u bergan.

9-fevral — Alisher Navoiy
tavallud topgan kun

Olim maqolasida yangi O'zbekiston bilan bog'liq bugungi davr voqeligi Alisher Navoiyning xalqimiz va jahon madaniyati hamda ilm-fani rivojiga qo'shgan ulkan hissasini yanada keng targ'ib etishni kun tartibiga qo'yayotganini ta'kidlaydi. Bunda mustaqillik sharofati bilan Navoiy biobibliografiyasini to'liq o'rganish va haqiqiy tarjimai holini yaratish, ul zotning ijodi va ma'naviy merosini aslicha, mohiyatini teran tushungan holda tadqiq qilish borasida yuzaga kelgan imkoniyatlardan izchil va samarali foydalanish talab etilishini aytadi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi bibliografi tomonidan 1968-yil o'zbek va rus tillarida "Alisher Navoiy" biobibliografik ko'rsatkichi tayyorlanib nashr etilgan. Bu muhim ahamiyatga ega bo'lib, undan hozirgi kungacha ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanib kelinmoqda. Ammo bibliografiyaga asosan O'zbekiston Milliy kutubxonasi fondidagi adabiyotlar kiritilgan.

1991-yil Alisher Navoiy hazratlarining 550-yillik yubileyi bahonasida kamina va O'zbekiston Milliy kutubxonasi bibliografi, malakali mutaxassis, hozirda pensioner Apipa Turpova bilan hamkorlikda "Alisher Navoiy" biobibliografiyasini o'zbek va rus tillarida nashrga tayyorladik. Ayrim sabablarga ko'ra uning o'zbek tilidagi nusxasi gazeta qog'ozida nashr etildi, rus tilidagi nusxasi esa yo'qolib ketdi.

Bilamizki, shaxs bibliografiyasi uning hayoti va ijodi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy faoliyatiga oid barcha turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Bibliograf har bir materialni, kitob yoki maqolani ilmiy tahlil qilib, mazmuniga yoxud belgilangan tartibga ko'ra joylashtiradi. Bundan maqsad — foydalanuvchini qiziqitirgan mavzu, muammo, asar nomi, turi, nashr yili va joyi, qaysi tildaligidan qat'i nazar, zarur ma'lumotni oson, tez va qulay topishiga hamda foydalanishiga imkon yaratishdir.

Shu jihatdan, "Alisher Navoiy" biobibliografiyasining yangi nashri, shubhasiz, buyuk shoir va mutafakkir bobomizning hayoti hamda

ijodini o'rganishda muhim qo'llanma bo'ladi.

Usto'zim, marhum akademik Azizxon Qayumov taklifi va tashabbusi bilan 1979-yildan buyon Navoiy biobibliografiyasini tuzib nashr ettirib kelamiz. Avval yillik bibliografiyalar, keyinchalik alohida bibliografik ko'rsatkich, hozirgi vaqtda esa deyarli 100-yillik vaqtini o'z ichiga olgan biobibliografiyani nashrga tayyorlayapmiz. Unga nafaqat O'zbekistonda, balki xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan manbalar ham kiritilgan. Manbalar nashrlarning turli, Alisher Navoiy va unga oid asarlarining turli, masalalar bo'yicha alohida guruhlashtirilgan. Tadqiqotchilarning vazifasi, oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib, manbalar nashr yili, turi, alohida asarlari bo'yicha topish mumkin. Hozirgi kunda ko'rsatkich 890 sahifadan iborat. Adabiyotlar jami 13 mingga yaqin raqamlar ostida tartibga solingan. Bu ishning ahamiyati shundaki, daho bobomizga oid qanday manba bo'lsa, kitobxon o'ziga keraklisini topadi, ular bilan ishlash o'ladi.

Masalan, hazrat Navoiyning "Mehribone topmadim" g'azali 10 ta manbada nashr etilgan bo'lsa, endilikda ular bir joyga yig'ildi. Yoxud "Xamsa" haqidagi materiallar dostonlar nomi ostida alohida berilgan. Alisher Navoiy asarlari qaysi tilda, masalan, ingliz, nemis, latish, tojik tilida chop qilingan bo'lsa, til nomi ostida joylashtirilgan. Har bir material ilmiy nuqtayi nazaridan tahlil etilib, ko'rsatkichning tuzilishi belgilangan.

O'ylaymizki, mazkur biobibliografiya navoiyshunoslikda sarhisob qilish vazifasini ham o'taydi, Alisher Navoiy ijodiga qiziqishni oshiradi, shoir bilan bog'liq ma'lumotlarning saqlanib qolishiga asos bo'ladi. Shuningdek, O'zbekiston bibliografiyasining takomillashib borishiga yordamlashib, shu sohada ta'lim olayotgan yoshlarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlab borishiga turki beradi.

Zuhra BERDIYEVA,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi
tarkibidagi Fundamental
kutubxona direktori.

ZAMONAVIY BOG'CHA
BOLAJONLAR IXTIYORIDA

Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi G'ijduvon mahallasida yana bir yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalanishga topshirildi.

Maktabgacha ta'lim

Davlat-xususiy sheriklik asosida bunyod etilgan mazkur MTT o'z bag'riga 100 nafar 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni sig'diradi. Barcha qulaylikka ega ushbu maskanda kelajagimiz vorislari uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, binoda mashg'ulot xonasi, yotoqxona, hamshira xonasi, oshxona, musiqa zali mavjud. Shuningdek, yozgi ayvanchalar hamda bolalar o'yin maydonchalari tashkil etilgan.

Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bo'lim boshlig'i G'ayrat Boboxolovning ma'lum qilishicha joriy yilda viloyatda 3 — 7 yoshli bolalar qamrovini 71,6 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Buning uchun sakkizta davlat, beshta davlat-xususiy sheriklik asosidagi hamda yuzlab oilaviy nodavlat MTTlar ochiladi.

Shuningdek, o'n ta to'liq kunlik tayyorlov va ellikta bir yillik bepul majburiy maktabga tayyorlov guruhlari tuzilib, ularga yuzlab bolalar qamrab olinadi. Homyilik mablag'lari hisobidan 26 ta bo'sh guruh xonalarni ta'mirlash hisobiga 580 o'rinni yangi quvvat yaratish ham ko'zda tutilmoqda.

Abdullaziz YO'LDOSHEV
("Xalq so'zi").

SUN'IY INTELEKT:
IMKONIYATMI YOKI TAHDID?

Bugun dunyoda taraqqiyot misli ko'rilmagan darajada jadal tus oldi. Turli sohalardagi hozirgi yangilanishlarni bir vaqtlar, hatto tasavvur ham qilish mushkul edi. Jumladan, IT sohasidagi bugungi yuksalishlarni ham. Tizimda qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar samarasi o'laroq "aqlli" robotlar, "yo'l ko'rsatuvchi" ilovalar, uchuvchisiz uchadigan qurilmalar, murakkab jarrohlik amaliyotini o'tkazuvchi moslamalar, yuzni tanuvchi dasturlar hayot tarzimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Bu texnologiyalarning asosida sun'iy intellekt yotgani hech kimga sir emas.

Ayni paytda "Sun'iy intellektning takomillashtirishning chegarasi bormi? U insoniyatga yana qanday imkoniyatlarni tuhfaga etadi? Neyron tarmoq oxir-oqibat insoniyat ustidan hukmronlik qilmaydimi?" kabi savollar ko'pchilikni qiziqtiradi. Ularga mutaxassislar muayyan javoblarni bermoqda. Biroq yakkil xulosalarga kelingani yo'q, bahs-munozaralar davom etmoqda.

Ushbu masala yuzasidan AQShdagi vatandoshimiz, "Amazon" kompaniyasi dasturiy ta'minot muhandisi Behzod MAMADIYEV o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Bugunning gapi

— Axborot texnologiyalari fanida "Tyuring testi" degan atama bor. U britaniyalik mashhur olim Alan Tyuring tomonidan XX asr o'talarida ishlab chiqilgan. Ushbu test orqali mashina yoki kompyuterning intellekti inson ongiga qanchalik tenglashgani imtihon qilinadi, — deydi Behzod Mamadiyev. — Agar kompyuter yoki sun'iy intellektning javoblari, o'zini tutishi insondan farqlash mumkin bo'lmagan darajaga yetsa, u "Tyuring testi"dan o'tgan hisoblanadi.

Shu paytgacha hech bir axborot mashinasi mazkur sinovdan o'ta olmagan. Sun'iy intellektga yordam beradigan boshlanganiga oid tadqiqotlar boshlanganiga yorim asrdan oshdi. Kunlar kelib kompyuterning odamdek so'zlashishi, hatto aqli insonlarnikidan o'zib ketishi haqida bashoratlar ko'p bo'lgan, lekin buning qachon ro'y berishi haqida farazlar turlicha.

"Fikrlaydigan"
texnologiyani
yaratish yo'lida

"Sun'iy intellekt" (Artificial Intelligence) atamasi fanga 1956-yilda amerikalik olim Jon Makkarti tomonidan kiritilgan. Agar kompyuter yoki biror axborot dasturi, odatda, bajarish uchun inson aqli va tafakkuri talab qilinadigan ishni mustaqil amalga oshira olsa, bu sun'iy intellekt hisoblanadi. Biologik mavjudot hisoblanmish odamning aqli, fikrlashi bu haqiqiy intellekt bo'lsa, nobiologik, ya'ni inson tomonidan yasalgan buyum yoki boshqa bir predmetning "fikrlashi" sun'iy intellekt deb ataladi.

O'tgan asrning 60-yillarida olimlarning qizg'in e'tiborini torgan bu soha 70-yillarga kelib "Sun'iy intellekt qishi" deb atalgan davrga qadam qo'ydi. Ya'ni sohada biror jiddiy siljish kuzatilmagan bo'lsa, u e'tibor va sarmoya kiritish keskin pasaydi.

90-yillarga kelib, sun'iy intellektning "Mashina o'rganuvi" (Machine learning) deb atalganidan yo'nalishida tadqiqotlar kuchaydi. Inson tomonidan yaratilgan algoritmlar asosida kompyuterning mustaqil ravishda o'z bilimini boyitib borishi "Mashina o'rganuvi" deb ataladi. Har qanday sun'iy intellekt asosida shu texnologiya yotadi. Sodda qilib aytganda, sun'iy intellektning ozuqasi, bu — axborot va u doim axborotga o'ch. Mashina qancha ko'p axborot

bilan oziqlantirilsa, u shuncha aqli bo'lib boradi.

2000-yillardan boshlab ilg'or mikrosxemalar va super kompyuterlar yordamida sun'iy intellektning arzonroq va tezroq treningdan o'tkazish imkoniyati paydo bo'ldi. "Kompyuterning ko'rishi" (Computer vision), "Chuqur o'rganish" (Deep learning) yo'nalishlarida samarali tadqiqot va tajribalar o'tkazildi.

"ChatGPT":
sohada tub
burilish

2022-yil 30-noyabr kuni A Q S h n i g " O p e n A I " kompaniyasi "ChatGPT" onlayn platformasini ommaga taqdim etdi. Hammaga tanish chat oynasi orqali siz istalgan savolni (taqiqlangan mavzulardan tashqari) sun'iy intellektdan so'rashingiz mumkin. U sizga qaytaradigan javoblar esa hayratlanarli darajada aniq va ravon. Matematika, fizika, kimyo kabi fanlar yoki veb-saytlar uchun kod yozish bo'ladimi, xullas, inson zotiga ma'lum istalgan fanga oid savolni so'rashingiz mumkin, u sizga o'sha sohaning olimdek javob qaytaradi. Go'yoki, kompyuter emas, inson bilan gaplashayotgandek bo'lasiz.

Masalan, "Termoyadroviy reaksiya nima?" deb so'rang. U sizga ilmiy va batafsil tushuntirish beradi. Endi undan xuddi shu javobni yetti yashar bolaga tushuntirib ber, deb so'rang. U bu safar juda sodda tilida, bola tushunadigan misollar bilan javob beradi.

Sun'iy intellekt she'rlar yozadi, hikoyalar va hatto roman qoralashi mumkin. Qanday mavzuda bo'lishini aytasangiz kifoya. Musiqa bastalaydigan, qo'shiq kuylaydigan, haqiqiy tasvirlardan farqlash mumkin bo'lmagan darajada sifati sun'iy videolar tayyorlab beradigan platformalar ham mavjud.

Bu qanday ishlaydi?
Sun'iy intellektning insondek so'zlashish qobiliyati "Katta til

modeli" (LLM — Large Language Model) deb ataladigan tizimga asoslangan. Unga turli adabiyotlar, kitoblar, maqolalar, internetda mavjud matnlar, xullas, insoniyat yaratgan matnli, video va audio formatdagi ma'lumotlar yuklanadi va maxsus algoritmlar yordamida treningdan o'tkaziladi. Sodda qilib aytganda, chaqaloqdek miyasi bo'sh kompyuterga biz qanday gapirishni va yozishni o'rgatamiz, uni turli sohalarda olimga aylantiramiz.

Keyin unga treningdan o'tkazilgan mavzularda savol tashlasangiz, o'z bazasidagi millionlab resurslarni varaqlab, to'g'ri javobni topadi. Javobni tuzishda grammatikaga oid bilimlarini ishga soladi. O'z ixtiyorida millionlab, balki milliardlab misollarni tahlil etgan holda siz so'ragan savolga

Men "ChatGPT"ni "Tyuring testi" orqali sinab ko'rmoqchi bo'ldim. Ingliz tilida har xil savollar bilan uni chalg'itishga urindim. "Tyuring testi" aslida maxsus mutaxassislar tomonidan alohida savollar orqali o'tkaziladi. Lekin men olib borgan oddiy suhbatda ham ovoz sohibi haqiqiy inson emasligini sezish qiyin emas. Ingliz tili talaffuzi, ohang va intonatsiyada hech qanday muammo yo'q. Lekin har bir javob oxirida yana qanday savoling bor, deya takror-takror so'rashi, ba'zan boshqa tillarda gapirib yuborishi hamda o'zbek tilini bilaman deya da'vo qilib, juda yomon talaffuz bilan o'zbekcha gapirishi, "O'zingga o'zbekcha ism tanla", deb so'raganimda, ayol ovozigga ega bo'la turib, dastlab o'ziga erkakning ismini olgani uning haqiqiy odam emasligini ko'rsatib qo'ydi.



Olimlar taxminiga ko'ra 2030-yilgacha sun'iy intellekt "Tyuring testi"dan o'tadi. Ya'ni uning javoblari, o'zini tutishi, his-hayajoni insonnikidan mutlaqo farqlab bo'lmaydigan darajaga yetadi.

ehtimoliy to'g'ri javob nima bo'lishi mumkinligini taxmin qiladi va eng optimal deb hisoblagan javobni sizga jo'natadi.

"ChatGPT" deyarli barcha tillarda gapiradi. Asosiy zaboni ingliz tili, lekin boshqa tillarda ham ishlatish mumkin. U o'zbek tilida ham muloqotga kirisha olishini da'vo qiladi, lekin hozircha bu tilidagi imkoniyatlari ancha cheklanganini sezish qiyin emas. Bu faqat vaqt va resurs masalasi bilan bog'liq. Sun'iy intellekt o'zbek tilidagi manbalar bilan ko'proq oziqlantirilsa, u ham tez orada bizning zamonimizda "bulbuldek sayraydigan" bo'ladi.

Yangi platforma
"Tyuring testi"dan
o'tdimi?

"ChatGPT" shu darajada zo'r ishlar ekan, demak, uning aqli, fikrlashi inson darajasiga yetdi, deb xulosa qilishimiz mumkinmi?

Ushbu platforma ilovasiga yaqinda audio orqali suhbatlashish funksiyasi ham qo'shildi. Endi siz u bilan istalgan mavzuda ovozi muloqot qilishingiz mumkin.

Lekin matn orqali gaplashganda bu kamchiliklar sezilmaydi.

Olimlar taxminiga ko'ra 2030-yilgacha sun'iy intellekt "Tyuring testi"dan o'tadi. Ya'ni uning javoblari, o'zini tutishi, his-hayajoni insonnikidan mutlaqo farqlab bo'lmaydigan darajaga yetadi.

Aql bovar qilmas
"aql"

Sun'iy intellektning ishi faqat savollarga javob berishdan iborat emas. Uni amaliyotda turli sohalarda qo'llash mumkin. Oddiy nazar, u turli sohalarda ekspert darajasidagi bilimga ega tekin ishchi. U o'ta murakkab, inson bajarishi uchun katta vaqt va resurs talab qilinadigan vazifalarni juda qisqa muddatda va a'lo darajada bajara oladi.

Statistika va tahlil bilan shug'ullanadigan kompaniyalar ishi juda osonlashgan: sun'iy intellektga ming betlik hisobotni taqdim etib, menga bir-ikki betlik xulosasini chiqarib ber, deyilsa kifoya, soniyalar ichida hisobotning mag'zi tayyor bo'ladi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari kabi ko'plab tarmoqlarda allaqachon sun'iy intellektdan samarali foydalanilmoqda.

Sun'iy intellekt yordamida yangi dori turlari va vaktsinalar kashf etilyapti. Yaqin yillarda u ko'plab

Xullas, sun'iy intellekt bizga ko'p ajoyibotlar va qulayliklar taqdim qilishda davom etadi. Bu ne'matlardan bahra olar ekanmiz, mazkur texnologiya insoniyat uchun qanday oqibatlarga olib kelishi esa hali-hanuz savol ostida.

Diilshod KARIMOV
("Xalq so'zi") yozib oldi.

bedavo yoki og'ir kasalliklarga davolash topishi bashorat qilingan.

Sun'iy intellektga ega robotlar va boshqa amaliy jihozlar soni ham kundan-kunga ko'paymoqda. Odamdek gapiradigan va ishlaydigan robotlar xonadonlarga kirib bormoqda. Avtomobillarning odam tomonidan boshqarilishi yaqin kelajakda o'tmishga aylanadi, chunki ular sun'iy intellekt yordamida o'z manzilini mustaqil topib boradi.

Vaziyat shu darajaga yetadiki, uning qanday ishlayotganini, hatto dastur egalari ham tushunmaydigan davrlar keladi...

Sun'iy ong xavotiri

Sun'iy intellekt imkoniyatlariga oid umidlar bilan bir qatorda tahdid va xavotirlar ham bor. Xavotirlarning eng oddiyi — uning insonlar ishini tortib olishi va ishsizlikni ko'paytirishi. Eng katta tahdid sifatida esa sun'iy intellekt hukmron bo'ladigan kelajakda insoniyatning yashab qolishi savol ostiga olinmoqda.

Sun'iy intellekt tufayli ko'plab ish o'rnlari boy berilishi haqiqat. Ba'zi sohalar kelajakda, hatto kasb sifatida g'oyib bo'lishi taxmin qilinayapti. Bular — o'qituvchilar, haydovchilar, dasturchilar va hatto jurnalistlar hamda shifokorlar. Musiqa, kino sanoati va boshqa ko'ngilochar sohalardagi ish o'rnlari ham tahdid ostida.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosida yangi sohalar, yangi kasblar va ish o'rnlari paydo bo'ladi, degan qarashlar bor. Sun'iy intellekt kam xarajat evaziga katta boylik yaratishi hisobiga, barcha uchun universal maosh belgilash g'oyasini olg'a surayotganlar ham mavjud. Ya'ni ishlash yoki ishlamasligidan qat'i nazar, hamma yashash uchun yetadigan minimum nafaqa bilan ta'minlanadi.

Asosiy tahdid bunda emas. "SpaceX", "Tesla" kabi bir qator kompaniyalar egasi, shuningdek, "ChatGPT"ni ishga tushirgan "OpenAI" kompaniyasi asoschilaridan biri Ilon Maskning aytishicha, insoniyat tirik qolish yoki qolmaslik xavfi bilan yuzlashmoqda. Unga ko'ra sun'iy intellekt shu darajada taraqqiy etadiki, uning nazorati inson qo'lidan chiqib ketadi. O'z tafakkuri va mantiq'i asosida insonning ba'zi harakatlarni ideal jamiyat uchun xavf deb topsa, sun'iy intellekt odamzod erkini cheklashi va hatto uni jismonan yo'q qilishi mumkinligi haqida farazlar bor.

Shuning uchun sun'iy intellekt asoslarini to'g'ri tanlash, uning nazoratidan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik va barcha birdek rioya etadigan "o'yin qoidalari"ni qabul qilish taklif etilmoqda.

Yevropa Ittifoqi Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonunni imzolash arafasida. AQShda bu sohada tadqiqot olib boruvchi eng yirik kompaniyalar sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha o'zaro "o'yin qoidalari"ni kelishib olgan. Boshqa davlatlarda ham shunday harakatlar bor.

qiladi. Ishonamizki, yaqin istiqbolda Yangibo'st'donam ham chempionlar yetishib chiqadi.

Tantanalari tadbir qatnashchilari yangi sport zalida yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, maktab o'quvchilarining turli chiqishlaridan bahramand bo'lidlar.

Aytish joizki, tuman maktablarida sport zallari soni 32 taga yetdi.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142. 15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqab. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummulligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohmami rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir Z. Xudoyshekurov.
Musahhib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.15 Topshirildi — 23.05 **1 2 3 4 5 6**